

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA KUZ  
MANZARASI VA AYRILIQ FALSAFASI (“KUZNING MO'JIZASI-  
ALVONRANG SHAF AQ...” SHE'RI TAHLILI ASOSIDA)**

*Nurmaxmatova Firuza Rasulovna*

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari*

*Universiteti Ingliz filologiyasi*

*Fakulteti 2-bosqich talabasi*

*feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX o'zbek adabiyoti osmonida o'zining iste'dodi bilan eng yorqin yulduzlardan biriga aylangan ijodkordir. U nafaqat o'zi yashagan zamonning muammolarini badiiy uslubda qog'ozga tushirgan shoir, balki inson ruhining eng nozik qatlamlarini ham ta'sirli uslub bilan she'riyatga ko'chirgan ijodkor ham. Faynberg ijodiyotida shoirlik shunchaki tabiat tasvirlari yoki voqeliklarni kuzatib boorish bilan cheklanib qolmaydi; uning asarlari inson qalbi, uning ichki kechinmalari, hayotiy tajribalari va falsafiy mulohazalari chuqur aks etadi. Faynberg inson va tabiat orasidagi hamohanglik, vaqtning o'tkinchiligi, ayriliq va sog'inch hissiyoti, hayotning go'zalligi va tabiat kabi mavzularni o'z she'riyatida teran, insonni o'ylantirib qo'yadigan falsafiy mulohazalar vositasida yoritib beradi. Shoir she'riyatida tabiat tasvirlaridan salmoqli foydalansa-da, uning uchun tabiat tasviri dekorativ element emas. Ijodkor har bir rang, har bir manzara va harakatni inson ichki olamida ro'y beruvchi o'zgarishlar, his-tuyg'ular, sog'inch va xotiralarni tasvirlab berish uchun foydalanadi va ushbu tabiat tasvirlari inson ruhiy olami bilan uzviy bog'liqlikni hosil qiladi. Ayniqsa, kuz fasli Faynberg ijodida o'ziga xos o'rin egallaydi. Kuz-bu nafaqat tabiatning sarg'ayishi va yog'ochning sariqligi, balki inson qalbining ichki dunyosida uyg'onadigan hissiyotlar, xotira va ayriliq onlarini ramziy tarzda aks ettiruvchi fasl sanaladi. Shoirning kuz manzaralarini tasvirlashdagi nozikligi va rang-barangligi uning she'riyatidagi falsafiy chuqurlik va lirik hissiyot uyg'unligini yaratadi. Shu bilan bir qatorda Faynbergning ijodiy yondashuvi o'ziga xos psixologik teranlik bilan ajralib turadi. Har bir kuz manzarasi, har bir vokzal tasviri yoki relslarning yaltirashi inson hayotining ma'lum bir lahzasini-uchrashuv va xayrlashuv, umid va sog'inch, iztirob va hayotning davomiyligi kabi kechinmalarni ochib beradi. Ijod bularni nafaqat ko'rish va eshitish orqali, balki hid, harakat va ranglarning tafsiliy tasviri bilan ham ifodalaydi, shu bilan o'quvchini to'liq estetik va ruhiy tajribaga chorlaydi. Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zining “Kuzning mo'jizasi-alvonrang shafaq...” she'rida mana shunday she'riy uslub va yondashuvdan mohirona foydalangan. Mazkur maqola Faynbergning ushbu she'ri tahliliga asoslangan.

**Abstract:** Alexander Arkadevich Feinberg is a writer who, with his talent,

became one of the brightest stars in the sky of 20th-century Uzbek literature. He is not only a poet who artistically captured the problems of the time he lived in, but also a writer who impressively translated the most delicate layers of the human soul into poetry. In Feinberg's work, poetry is not limited to simply observing images of nature or realities; his works deeply reflect the human soul, its inner feelings, life experiences, and philosophical reflections. Feinberg illuminates topics such as the harmony between man and nature, the transience of time, the feeling of separation and longing, the beauty of life and nature in his poetry through deep, thought-provoking philosophical reflections. Although the poet uses images of nature extensively in his poetry, for him the image of nature is a decorative. The artist uses every color, every scene and movement to describe the changes, feelings, longings and memories that occur in the inner world of man, and these images of nature create an inextricable connection with the spiritual world of man. In particular, autumn occupies a special place in Feinberg's work. Autumn is not only the yellowing of nature and the yellowness of wood, but also the season that symbolically reflects the emotions, memories and moments of separation that awaken in the inner world of the human soul. The poet's subtlety and variety in describing autumn scenes create a harmony of philosophical depth and lyrical emotion in his poetry. At the same time, Feinberg's creative approach is distinguished by its own psychological depth. Each autumn scene, each image of a train station or the glitter of rails symbolizes a certain moment in human life - a meeting and a farewell, hope and It reveals experiences such as longing, suffering, and the continuity of life. The work expresses these not only through sight and hearing, but also through detailed depictions of smell, movement, and color, thereby inviting the reader to a full aesthetic and spiritual experience. Alexander Arkadyevich Feinberg skillfully used such a poetic style and approach in his poem "The Miracle of Autumn - Colorful Dawn...". This article is based on an analysis of this poem by Feinberg.

**Аннотация:** Александр Аркаевич Файнберг — писатель, благодаря своему таланту ставший одной из самых ярких звёзд узбекской литературы XX века. Он не только поэт, художественно запечатлевший проблемы своего времени, но и писатель, впечатляюще переведший в поэзию самые тонкие грани человеческой души. В творчестве Файнберга поэзия не ограничивается простым наблюдением за образами природы или реальности; его произведения глубоко отражают человеческую душу, её внутренние чувства, жизненный опыт и философские размышления. Файнберг освещает в своей поэзии такие темы, как гармония между человеком и природой, быстротечность времени, чувство разлуки и тоски, красоту жизни и природы посредством глубоких, заставляющих задуматься философских размышлений. Хотя поэт широко использует образы природы в своей поэзии, для него образ природы — это декоративный элемент. Художник использует каждый цвет, каждую сцену и движение, чтобы описать

изменения, чувства, стремления и воспоминания, происходящие во внутреннем мире человека, и эти образы природы создают неразрывную связь с духовным миром человека. В частности, осень занимает особое место в творчестве Файнберга. Осень – это не только пожелтение природы и желтизна леса, но и время года, символически отражающее эмоции, воспоминания и моменты разлуки, пробуждающиеся во внутреннем мире человеческой души. Тонкость и многообразие поэта в описании осенних пейзажей создают в его поэзии гармонию философской глубины и лирической эмоциональности. В то же время творческий подход Файнберга отличается собственной психологической глубиной. Каждый осенний пейзаж, каждый образ вокзала или блеск рельсов символизируют определенный момент в жизни человека – встречу и прощание, надежду и раскрывают такие переживания, как тоска, страдание и непрерывность жизни. Произведение выражает это не только через зрение и слух, но и через детальное описание запахов, движения и цвета, тем самым приглашая читателя к полному эстетическому и духовному опыту. Александр Аркадьевич Файнберг мастерски использовал такой поэтический стиль и подход в своей поэме «Чудо осени – красочный рассвет...». Данная статья основана на анализе этого стихотворения, проведенном Файнбергом.

**Kalit so‘zlar:** Aleksandr Arkadevich Faynberg, she’riyat, kuz manzarasi, lirik kechinmalar, ayriliq, sog‘inch, vokzal tasviri, relslar, tabiat ramzi, rang-baranglik, alvonrang shafaq, turnalar galasi, hayot falsafasi, ichki dunyo, emotsional tasvir, metafora, jonlantirish, hid va ta’ m tasviri, harakat obrazlari, umid va davomiylik.

**Keywords:** Alexander Arkadyevich Feinberg, poetry, autumn landscape, lyrical experiences, separation, longing, image of a train station, rails, symbol of nature, diversity, scarlet dawn, flock of cranes, philosophy of life, inner world, emotional image, metaphor, animation, image of smell and taste, images of movement, hope and continuity.

**Ключевые слова:** Александр Аркадьевич Файнберг, поэзия, осенний пейзаж, лирические переживания, разлука, тоска, образ вокзала, рельсы, символ природы, многообразие, алый рассвет, стая журавлей, философия жизни, внутренний мир, эмоциональный образ, метафора, оживление, образ запаха и вкуса, образы движения, надежда и преемственность.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Kuzning mo’jizasi- alvonrang shafaq...” satri bilan boshlanuvchi she’ri uning ijodidagi tabiat tasviri bilan inson ruhiyati uyg’unlik hosil qilgan ajoyib badiiy namunalardan biri hisoblanadi. Mazkur she’rda turnalar galasi, kuzning mo’jizasi, vokzal va relsalar obrazlari nafaqat tashqi manzara sifatida berilgan, balki inson qalbining turli holatlari bilan uyg’unlashgan falsafiy ramzlar sifatida xizmat qiladi. Shoir bu she’ri yordamida inson va tabiat, vaqt va

xotira, ayriliq va davomiylik orasidagi murakkab bog'liqlikni tushuntirib beradi. Shu nuqtai nazardan, Aleksandr Faynbergning she'riyatida kuz fasli – bu shunchaki fasl emas, balki inson ruhiyatini, uning ayriliq va sog'inchga bo'lgan munosabatini, hayotning o'tkinchiligini anglash faslidir. Bu she'r nafaqat kuz manzarasini, balki insonning ichki dunyosini ham jonlantiruvchi badiiy maydon sifatida namoyon bo'ladi. Shoir she'riyatida kuzning nafaqat estetik, balki falsafiy emotsional qadriyatini ochib berishga harakat qiladi.

Kuzning mo'jizasi – alvonrang shafaq.

Bulutlar poygachi kemadek yuzar –

Oq yelkanlar yuzar janubga ilhaq,

Turnalar galasi ulardan o'zar.

Ufqqa botayotgan quyosh yumaloq

Gumbaz qalpog'iga uzatadi qo'l.

Yurak ayriliqning totini sezar,

Malina ifori anqiydi nuqul.

Vokzal. Tutunlarga chulg'angan peshtoq,

Baydarka uchadi oltin anhorda.

Orkestr yangraydi bog'larda mushtoq,

Xazoning navosi yangrar nahorda.

– Xayr, – vokzal tomida o'ynar bozbarak,

Zang temir uchida tillarang xo'roz.

Bo'g'izda yosh. Go'yo tosh qotar yurak,

Moyli shpallarga qurum qo'nar boz.

Sezaman – kimsasiz jarlikda tuman

O'rmalar temiryo'l osha o'tloqqa.

Yaltiragan bir juft relslar yonma-yon

Bora-bora singib ketar yiroqqa.

She'rning ilk misrasi – “Kuzning mo'jizasi-alvonrang shafaq”-o'quvchini darhol yorqin tasvir ichiga olib kiradi. “Alvonrang shafaq” ifodasi kuzning sarg'ish, qizg'ish, olovrang manzarasini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Bu yerda kuz g'amgin emas, aksincha, sehrli va mo'jizaviy tuzda namoyon bo'ladi. Shoir kuzni hayotning so'nggi nafasi emas, o'ziga xos go'zallikning tantanasi sifatida ko'rsatadi.

“Bulutlar poygachi kemadek suzar- Oq yelkanlar janubga ilhaq” misralarida bulutlarning kemaga o'xshatilishi harakat va safar ramzini kuchaytiradi. Janubga intilgan oq yelkanlar- bu iliqlik sari yo'l, ehtimol, qutqaruv yoki orzu manzili timsoli. Turnalar galasining ulardan ham o'zib ketishi esa tabiatning umumiy ko'chish, ketish, tark etish, jarayonini ishodalaydi. Kuz bu qolish emas ketish faslidir. Turnalar qadimdan ayriliq va sog'inch ramzi sifatida talqin qilingan. Shoir bu timsol bilan inson qalbida uyg'onayotgan ayriliq hissini tabiiy jarayon bilan

uyg'unlashtiradi.

“Ufqqa botayotgan quyosh yumaloq Gumbaz qalpog'iga uzatadi qo'l” misralarida berilgan tasvir da quyoshning botishi nafaqat kunning yakuni ,balki muayyan davrning tugashi ramzidir.Quyoshning “gumbaz qalpog'iga qo'l uzatishi” jonlantirish san'ati orqali berilgan bo'lib,osmon va yer,vaqt va makon o'rtasidagi nozik bog'liqlikni ko'rsatadi.

“Yurak ayriliqning totini sezar' satri esa butun she'rning emotsional markaziga aylanadi.Ayriliq “achchiq” emas, “tot” sifatida berilgan.Bu juda noyob badiiy qurulmadir.Demak,ayriliq ham hayotning bir lazzati,insonni yetuklikka eltuvchi yo'ldagi bir tuyg'u sifatida ko'rsatib beriladi.Bu o'rinda muallif fojeaviy ohang qo'llashdan chekinadi,aksincha,ayriliqni hayotning ajralmas qismi sifatida qabul qiladi.

“Malina ifori anqiydi nuqul”- hid sezgisi orqali berilgan tasvir she'rga yanada jonlilik bag'ishlaydi.Faynberg ko'rish va eshitib bilan cheklanmaydi.Hid sezgisi bilan ham kuzni jonlantirishga harakat qiladi.She'rning keyingi qismida manzara vokzalga ko'chadi.Vokzal bu odddiy bino emas,balki uchrashuv va xayrlashuv maskani,umid va iztirob chorrahasidir.Tutun bilan qoplangan peshtoq noaniqlik,mavhumlik,kelajakning noma'lumligining timsolidir.

“-Xayr,- vokzal tomidan o'ynar bozbarak...” misrasida shamol yo'nalishini ko'rsatuvchi bozbarak xuddi tirik mavjudoddek tasvirlanadi. “Zang temir uchida tillarang xo'roz” obrazi esa vaqtning o'tishi ,zang bosgan umr,biroq hali ham porlab turgan umidni anglatadi.”Bo'g'izda yosh.Go'yo tosh qotar yurak” satrida metafora qo'llangan bo'lib,u ayriliqning og'irligini kuchaytiradi.Yurakning tosh qotishi og'riqning so'zsiz ifodasidir.

She'rning yakuniy misralari o'ziga xos ramziy ma'noga ega.Relslar parallel hayot yo'llari timsolidir.Ular yonma-yon borsa-da,uzoqlikka singib ketadi.Bu inson taqdiri,vaqt oqimi va hayotning davomiy ekanligini bildiradi.Relslar ko'zdan yo'qoladi,ammo yo'l tugamaydi.Bu umid va davomiylik ramzidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,Aleksandr arkadevich faynbergning ushbu she'ri kuz manzarasi vositasida inson qalbiga xos bo'lgan murakkabliklarni ochib beradi.Shoir uchun kuz so'nish fasli emas,his-tuyg'ular uyg'onib,inson o'zligini anglaydigan davr.Shu jihatdan, Faynbergning ushbu she'ri kuz manzarasini emas,insonning ruhiyati,ayriliq falsafasini va hayot yo'lini badiiy talqin qilgan asardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Aleksandr Arkadevich Faynberg. She'rlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1975.

3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2002.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1980.